

## “REKTOR KUBOGI-2020” musobaqasining g‘oliblari taqdirlandi

Ma’lumki, talaba-yoshlarning qishki ta’til vaqtida joriy yilning 24 dekabridan 2020 yil 6 yanvarigacha bo’lgan kunlarda institut professor - o’qituvchi va xodimlar o’rtasida sportning mini-futbol, voleybol, stol-tennis hamda shaxmat-shashka turlari bo’yicha “Rektor kubogi” an’anaviy spartakiada musobaqalari yuqori saviyada qizg’in o’tkazilib g‘olib va sovrundorlar aniqlangandi.



Bugun institutimizda g‘oliblarni rag‘batlantirish tadbiri bo’lib o’tdi. Tadbir oldidan Yoshlar bilan ishlash bo’yicha prorektor Ruzimurot Choriev so’z olib Prezidentimizning sog‘lom turmush tarzi va jismonan sog‘lomlik borasidagi mulohazalarini keltirish asnosida g‘oliblarni samimiy tabrikladi. So’ngra ularga tantanavor tarzda faxriy yorliq va sovg‘a-sovrinlarni institut rektorati va kasaba uyushmasi nomidan taqdim etdi. O’shanda Stol-tennis bo’yicha g‘olib jamoalar quyidagicha aniqlangandi. 1-o’rin Rektorat jamoasidan Xaydarov Zuxriddinga, 2-o’rin YeRB fakulteti jamoasidan Jo’rayev Abdullaga, 3-o’rin GIM fakulteti jamoasidan Turdibekov Ilhomga nasib etganligi bois ularga tegishli sovg‘a va faxriy yorliqlar topshirildi.



Shaxmat bo’yicha g‘olib jamoalar sifatida 1-o’rin GTQ fakulteti jamoasidan Berdiev Mustafoga, 2-o’rin SXTEB fakulteti jamoasidan Begov Fayzulloga, 3-o’rinni GTQ fakulteti jamoasi Uralov Baxtiyor hamda GM fakulteti jamoasidan Primqulov Akbarlarga nasib etganligi sababli ular tegishli sovg‘alarni qabul qilib olishdi. Shashka bo’yicha 1-o’rin GM fakulteti jamoasidan Norqobilov Muhiddinga, 2-o’rin SXTEB fakulteti jamoasidan Namozov Jo’rabek, 3-o’rinni GTQ fakulteti jamoasi Ikramov Nazirjonlar egallab o’zlariga tegishli sovrinlarni qo’lga kiritishdi.



Ayollar o’rtasida voleybol bo’yicha 1-o’rin QXM fakultetiga, 2 -o’rin QSXET fakultetiga, 3 -o’rin GM fakulteti xotin-qizlariga nasib etgan bo’lsa, ayollar o’rtasida stol-tennisi bo’yicha birinchi o’rin QXM fakulteti jamoasidan X. Hotamqulovaga ikkinchi o’rin SXTEBdan J. Karimovaga, uchinchi o’rin GM fakulteti jamoasidan F. Mannonovaga nasib etdi. Ayollar o’rtasida shashka bo’yicha birinchi o’rin YeRBdan M. Xidoyatovaga, ikkinchi o’rin QXM fakultetidan Sh. Abdurahmonovaga, uchinchi o’rin YeRBdan D. Murodovalarga musharraf bo’ldi. Umumjamoat hisobida birinchi o’rinni QXM fakulteti, ikkinchi o’rinni Rektorat jamoasi, uchinchi o’rinni YeRB fakulteti jamoasi egalladi.



**Institut matbuot xizmati R.Jumaniyozov**